

## YER MONITORINGINI TAKOMILLASHTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI TADBIQ ETISH USULLARI

**Aralov Muzaffar Muxammadiyevich**

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti katta o'qituvchisi

**Oripov Umarjon Odilxonovich**

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, 1-bosqich magistranti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada yerlarni monitoring qilishda turli xil usullar yordamida monitoring qilish va xatlov nazoratini kuchaytirish maqsadida zamonaviy usullardan foydalanish bo'yicha ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar.** Yer, monitoring, zamonaviy usullar, karta, plan va dronlar.

O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli “Geodeziya va kartografiya faoliyati to'g'risida”gi Qonunida “Geodeziya va kartografiya” faoliyatini texnik jihatdan tartibga solish hamda sohaga oid ishlarni tashkil etish tartibi, geodeziya va kartografiyaga oid ishlarni bajarish aniqligi, vositalari, usullari va texnologiyalariga, geodeziya tarmoqlariga, karta va atlaslarning mazmuniga, joyning raqamli modellariga doir asosiy texnik talablar, shuningdek geodeziya va kartografiyaga oid ishlarning bajarilishi hamda ularning sifatiga oid talablar geodeziya va kartografiya faoliyatini texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarda belgilab berildi[1].


Respublikaning barcha tumanlarida yerlarni hisobga olish ishlari yetarli darajada tashkil etilmaganligi, ayrim tumanlarda yer maydonlarini xatlovdan o'tkazish ishlari 30-40 yillar oldin bajarilganligi, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri, tumanlar (shaharlar), shaharchalar, qishloqlar (ovullar) chegaralarining davlat koordinatalar tizimiga bog'lanmaganligi, hududlarda yer

hisobotini yuritish, yer uchastkalarini ajratish, davlat yer kadastrini yuritish borasida bir qator muammolarga sabab bo‘lmoqda[2].

An’anaviy usulga nisbatan, zamonaviy usullarda qishloq xo‘jaligi yerlari monitoringini yuritish ishlari keskin farq qiladi. Sababi zamonaviy usullarda qishloq xo‘jaligi yerlari monitoringini yuritish ishlari avvalo vaqt, ishning tezkor bajarish imkoniyati mavjudligi va sifat jihatdan yuqoriligi bilan farq qiladi.

Qishloq xo‘jaligi yerlarini monitoring qilishda uchuvchisiz uchish apparatlaridan foydalanish, qishloq xo‘jaligi yerlarini turli xil usullar yordamida monitoring qilish va ekish ishlari nazoratini kuchaytirish maqsadida zamonaviy uchuvchisiz uchish apparatlarini xarid qilish ishlarini yakunlash, bunday apparatlarni mamlakatimizda ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish maqsadida sohada bir qator keng kulamda ishlar olib borilmoqda[2,3].

Yer resurslarini xatlovdan o‘tkazish natijalari asosida zarur hollarda qonun hujjatlari bilan belgilangan tartibda sug‘oriladigan yerlar toifasidan sug‘orilmaydigan yerlar toifasiga o‘tkazish, qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarda bir yer turini boshqa yer turiga o‘tkazish, yerlardan kelgusida maqsadli va samarali foydalanish, yerlarning umumiy va meliorativ holatlari yomonlashgan, degradatsiyaga uchragan maydonlarini tiklash yoki konservatsiya qilish yuzasidan asoslangan takliflar ishlab chiqiladi.





**1-rasm. Kosmik sur’atlardan foydalanib yaratilgan ortofototarxlar yordamida yer monitoringini o’tkazish.**

Har bir ma’muriy-hududiy birlik bo’yicha yer resurslarini xatlovdan o’tkazish natijalari bo’yicha quyidagi tarkibda hujjat va materiallar shakllantiriladi:

- ❖ tushintirish xati (kelgusida yerdan samarali foydalanishga qaratilgan va aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan takliflar);
- ❖ yer resurslarini konturlar bo’yicha hisoblash qaydnomasi;
- ❖ yerdan foydalanuvchilar kesimida konturlar hisoblash qaydnomasi;
- ❖ aniqlangan noqonuniy holatlar bo’yicha ma’lumot;
- ❖ ma’muriy-hududiy birlik shahar va qishloqlar yer uchastkasining xaritasi[2].

Yer monitoringi takomillashtirish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Suv xo‘jaligi vazirligi, Davlat soliq qo‘mitasi va boshqa mutasaddi vazirlik va tashkilotlar ishtirokida olib boriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining «O‘zdaverloyiha» davlat ilmiy-loyihalash instituti Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlarida bo‘linmalari tashkil etilgan bo‘lib, ular o‘zlarining hududiy chegaralaridagi qishloq xo‘jaligi yerlaridagi o‘zgarishlar bo’yicha muntazam ravishda turli xil yer monitoring-kuzatuv ishlarini o‘tkazib boradilar.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasining “Geodeziya va kartografiya faoliyati to'g'risida”gi Qonuni, 02.07.2020 yil // lex.uz
2. R.A. Turayev. “Sug'oriladigan yerlar monitoringini yuritish metodologiyasini takomillashtirish” . Dissertatsiya (DSc): 06.01.10. –T.: -2021.
3. Aliqulov G.N., Aralov M.M. Qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanish samaradorligini oshirishda uchuvchisiz uchish apparatlarining o'rni. “INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING” 2022/2.
4. Aralov M.M., Berdiyev D.F., Abdiaziziov A.A. Uchuvchisiz uchish apparatlarini kartografiya sohasida qo'llash tamoyillari. ORIENTAL RENAISSANCE: INNOVATIVE, EDUCATIONAL, NATURAL AND SOCIAL SCIENCES SCIENTIFIC JOURNAL 2021, aprel.